

KICHIK VA O'RTA BIZNESDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Katta o'qituvchisi (PhD)

Kambarova Shaxnozaxon Mirvohitovna

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kichik va o'rta biznesda raqamli transformatsiyani joriy qilish ahamiyati, afzalliklari va rivojlanishi ko'rsatilgan. Shu bilan birga raqamli transformatsiyaning mohiyati va uni kichik korxonalaridagi muvaffaqiyatli tomonlari, kamchiliklari tadqiqotchi olimlarning fikrlari va qonunchilik bazalari orqali takomillashtirilgan.*

Kalit so'zlar: *transformatsiya, texnologiya, innovatsiya, sun'iy intellekt, bulutli texnologiya, neyron tizim, robototexnika, raqamli ta'lim, internet, raqamlashtirish, Google, Amazon, Kickstarter, operatsion samaradorlik, modernizatsiya.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В МАЛОМ И СРЕДНЕМ БИЗНЕСЕ.

Ташкентский государственный университет востоковедения

Старший преподаватель (PhD)

Камбарова Шахнозакхон Мирвохитовна

Аннотация. *В этой статье рассказывается об основах, преимуществах и развитии внедрения цифровой трансформации в малом и среднем бизнесе. В то же время сущность цифровой трансформации и ее успешные аспекты на малых предприятиях, а также недостатки были усовершенствованы с помощью мнений ученых-исследователей и законодательно-правовой базы.*

Ключевые слова: *трансформация, технология, инновация, искусственный интеллект, облачные технологии, нейронная система, робототехника, цифровое образование, интернет, оцифровка, Google, Amazon, Kickstarter, операционная эффективность, модернизация.*

IMPROVING DIGITAL TRANSFORMATION IN SMALL AND MEDIUM- SIZED BUSINESSES.

Tashkent State University of Oriental Studies

Senior lecturer (PhD)

Kambarova Shakhnozakhon Mirvokhitovna

Annotation. *This article describes the basics, benefits, and development of implementing digital transformation in small and medium-sized businesses. At the same time, the essence of digital transformation and its successful aspects in small enterprises, as well as disadvantages, have been improved with the help of the opinions of research scientists and the legislative framework.*

Keywords: *transformation, technology, innovation, artificial intelligence, cloud technologies, neural system, robotics, digital education, Internet, digitization, Google, Amazon, Kickstarter, operational efficiency, modernization.*

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanib borishida raqamli transformatsiyaning o'rni kattadir. Shu bilan birga kichik va o'rta biznes korxonalari faoliyatini takomillashtirishda xam raqamli transformatsiyani yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmonida Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda, keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsad qilib qo'yilgan.¹

Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi farmonida belgilanganidek, "raqamli iqtisodiyot sohasidagi yangi loyihalarni ko'rib chiqish va ularni amalga oshirish to'g'risida qarorlarni qabul qilish, shuningdek, zarur hollarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari hamda «yo'l xarita» lariga tayyorlangan va kelishilgan loyiha hujjatlari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish", masalalari ko'rildi.²

Kichik biznesda raqamli transformatsiya – bu texnologiyalar va raqamli vositalarni ish jarayonlariga, ishlab chiqarishga, savdo va marketing faoliyatiga kiritish jarayonidir. Kichik va o'rta bizneslar uchun raqamli transformatsiya muhimdir. Ularning raqobatbardoshligini oshirish, samaradorlikni ta'minlash va yangi bozorlarga olib chiqish imkoniyatlarini yaratish uchun zarurdir. Kichik va o'rta biznes sohasi uchun raqamli transformatsiyaning muhimligi: Raqamli texnologiyalarni joriy etish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6079 sonli farmoni <https://raqamlitarix.uz/wp-content/uploads/2022/12/PF-6079-05.10.2020.pdf>

orqali ish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratib beradi. Samaradorlikni oshirish: bu vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi, xatolarni kamaytiradi va ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtiradi.³

Biznesning raqamli transformatsiyasi yangi texnologiyalarni qo'llash orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan. Biroz oldin biznes sohasiga ijtimoiy tarmoqlarning joriy etilishini inqilob deb atash mumkin edi. Bugun esa bu yetarli emas. Kompaniyalar takomillashtirish va rivojlanish uchun zamonaviy texnologiyalarga muhtoj. Biznesni yuritishning an'anaviy strategiyalaridan raqamli biznes strategiyalariga inqilobiy o'tish tufayli kompaniya raqobatchilarga nisbatan sezilarli afzalliklarga ega bo'ladi. Yangi jarayonlarning ba'zilar tez va samarali ishga tushiriladi, boshqalari esa uzoq muddatli o'zgarishlarga olib kelishi va hatto qisqa masofalarda buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, ba'zi mijozlar innovatsiyalarni qabul qilishni istamasliklari sababli rad etishadi. Biroq raqamli transformatsiyaga to'g'ri yondashish va samarali vositalarni joriy etish kompaniyani «raqamlashtirish» va uning imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.⁴

Raqamli transformatsiya, har qanday o'zgarishlarni boshqarish kabi, barcha biznes jarayonlarni qayta formatlashga olib keladigan xatarlarni hisobga olishi kerak. Xavfni kamaytirishni boshqarish jarayonlariga oxir oqibat texnologiyalarni, avvalambor, katta ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va tahlil qilishni joriy qilish mumkin. Ushbu jarayon, biznes-jarayonlarining ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkoniyatidan tashqari, vaziyatning mumkin bo'lgan rivojlanishini hisobga olishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida profilaktika choralarini ko'rishga olib keladi.⁵

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili.

Kichik va o'rta biznesda raqamli transformatsiyasini takomillashtirish yangi rivojlanish yo'nalishlaridan bo'lishiga qaramay uning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari xorijlik olimlar va O'zbekiston olimlari tarafidan ko'rib chiqilgan.

Raqamli iqtisodiyot transformatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan bir qator farmonlarda aytib o'tilgan va ularga asoslangan qonuniy baza orqali amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmoni (28.01.2022) bunga asosiy poydevor bo'ladi.

³ Muzrabov A.A. Kichik va o'rta biznesda raqamli transformatsiyani jadallashtirish masalalari. O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi 2-kurs tinglovchisi. Ilm-fan xabarnomasi <https://inlibrary.uz/index.php/ixf/article/view/69501>

⁴Shohruh Rahmat, "Axborot texnologiyalar va axborot resurslarini rivojlantirish markazi" davlat unitar korxonasi, Loyihalar bajarilishini nazorat va tahlil qilish bo'limi boshlig'i. Raqamli transformatsiya biznesning rivojlanishiga qanday yordam bermoqda? 23.08.2022. https://ictnews.uz/23/08/2022/digital_transformation-uzb/

⁵ Suvanova D.D. – BTOM, doktorant. Aksiyadorlik jamiyatlarida biznesni boshqarish samaradorligini raqamlashtirish asosida oshirish yo'llari. Biznes va iqtisodiyotda raqamli transformatsiya mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Toshkent 2023. 210 bet.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev farmonlari asosida, O'zbekiston Respublikasida "Biznes va iqtisodiyotda" raqamli transformatsiya mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Ushbu konferensiyada chop etilgan maqolalar to'plamida biznesni boshqarishni samaradorligini oshirish asosida raqamlashtirish poydevori yaratildi va samaradorlikni oshirish, yo'nalishlari ko'rib chiqildi. Ular ichida Suvanova D.D. doktorant tomonidan ushbu jarayon juda aniq ko'rsatib berilgan; Muzrabov A.A. o'z ilmiy izlanishlarida "Kichik va o'rta biznesda raqamli transformatsiyasini jadallashtirish masalasi," O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi ilm-fan xabarnomasida chop etilgan.

Rossiyalik olimlar Nikolayev Yu.N. tomonidan, "Механизм цифровой трансформации субъектов малого и среднего предпринимательства." maqolasida, Мызрова К.А., Панько Ю.В. Цифровая трансформация малого бизнеса: возможности, перспективы и препятствия.

O'zbekiston olimlaridan S.S.G'ulomov, R.X.Ergashev, S.N.Xamrayeva tomonidan "Raqamli iqtisodiyot" (o'quv qo'llanma) T-2020 yilda chop etilgan.

Shuningdek, Mirsoatov A., Xudoynazarov F.X., Kamalov Sh.K. yosh olimlar tomonidan aniq kichik va o'rta biznes soxalarida raqamli iqtisodiyot, ularning 2023-2025 yillar ichida chop etilgan maqolalarida ko'rishimiz mumkin. Bular hammasi raqamli iqtisodiyotimizni Respublikada rivojlanish darajasi o'sib borayotganining natijasidir.

Kichik korxonaning raqamli transformatsiyasi nafaqat tashkiliy, balki mintaqaviy va milliy iqtisodiy tizimlarni ham raqamlashtirish uchun asos bo'ladi. Shu bilan birga, bu holat kichik va o'rta biznes sub'ektlari iqtisodiyotning eng moslashuvchan ishtirokchilari bo'lishi, keng innovatsion salohiyatga egaligi, qarorlar qabul qilish nuqtai nazaridan harakatchanligi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni hozirgi bozor voqeligiga xolisona moslashtirishi bilan bog'liq.⁶

Raqamli transformatsiya nafaqat yangi texnologiyalarni kichik va o'rta biznesning ish jarayonlariga joriy yetishi, balki chuqur o'zgargan boshqaruv yondashuvlarini, mijozlarning o'zaro ta'siri va butun tashkiliy madaniyatni o'z ichiga oladi. Olimlarning izlanishlariga asoslanib, aytishimiz mumkinki, cheklangan resurslar bilan ishlovchi kichik va o'rta biznes korxonalari uchun raqamlashtirish bozordagi raqobatbardoshlikni va o'sishni oshirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.⁷

⁶ Николаев Ю.Н., к.э.н., доцент, ВГТУ, г. Волгоград, Россия. Механизм цифровой трансформации субъектов малого и среднего предпринимательства. Прогрессивная экономика. 2023. № 1. С. 41–54. https://progressive-economy.ru/wp-content/uploads/2023/08/elibrary_50365406_69099252.pdf

⁷ Рустамова А.И. к.т.н., доц., Цифровая трансформация малого и среднего бизнеса: стратегии и инструменты для устойчивого роста. Economics: Yesterday, Today and Tomorrow. 2024, Vol. 14, Is. 5A <http://www.publishing-vak.ru/file/archive-economy-2024-5/b18-rustamova-osmanova.pdf>

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning asosi iqtisodiyot va jamiyatni raqamlashtirish jarayoni bo'lib, u raqamli texnologiyalarni ommaviy qabul qilish va o'zlashtirishni nazarda tutadi, bu esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishiga olib keladi, bu zamonaviy biznesga global ta'sir ko'rsatadi. Raqamlashtirish ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga kirib bordi, uning kichik biznes tomonidan qo'llanilishi bundan mustasno emas edi. Raqamli transformatsiyaning zamonaviy sharoitida yangi ochilgan imkoniyatlardan foydalangan holda va raqamli iqtisodiyotga o'tishni amalga oshirishda o'zining ilg'or rivojlanishi orqali to'siqlarni engib o'tishga qodir bo'lgan kichik biznesdir. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning zamonaviy davri endi biznesni o'zgartirmaslik mumkin emas. Kichik biznes tashkilotlarining raqamli transformatsiya jarayoniga jalb etilishi, birinchidan, raqobatbardoshlikning oshishi bilan, ikkinchidan, "raqamli relslarga" o'tishda rivojlanish istiqbollari bilan bog'liqdir.⁸

Tadqiqotning metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-xuquqiy xujjatlar, mantiqiy fikrlash, tizimli taxlil, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, iqtisodchi olimlarning qiyosiy va tanqidiy taxlili, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy statistik ma'lumotlar, umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Taxlil va natijalar. Raqamli transformatsiyani amalga oshirishning muhim shart-sharoitlari sifatida axborot jamiyatining global rivojlanishi, yangi istiqbolli raqamli texnologiyalarning (virtual reallik texnologiyalari, sun'iy intellekt, ulkan ma'lumotlar, mashinali o'qitish va neyron tizimlar, robototexnika, buyumlar interneti) keng qo'llanilishi, raqamli ta'lim muhitining shakllanishi, internet tarmoqlariga ulanish imkoniyatining keskin oshishi kabilarni keltirish mumkin. Raqamli transformatsiya raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali takomillashtirilgan mahsulotlar, xizmatlar va biznes modellariga erishish uchun birgalikdagi tashkiliy ishlarni tartibga solishga qaratiladi. Har qanday zamonaviy kompaniya singari, tijorat banklarining maqsad va vazifalarini amalga oshirish axborot texnologiyalari (IT) va bank o'rtasida uzluksiz, doimiy dinamik tarzda amalga oshiriladigan axborot tizimlarini strategiyalash jarayonini talab qiladi. Raqamli transformatsiya yangi innovatsion biznes modellarini yo'lga qo'yish, biznes jarayonida qo'llaniladigan, o'rnatilgan qurilmalar, ijtimoiy media, mobil, bulut, tahlil va buyumlar interneti kabi raqamli texnologiyalar vositasida operatsiyalarni optimallashtirish va mijozlar uchun

⁸ Мызрова К.А., Панько Ю.В. Цифровая трансформация малого бизнеса: возможности, перспективы и препятствия
<https://1economic.ru/lib/122173>

qiymat xamda tajribani oshirish orqali biznes samaradorligini sezilarli o'zgarishiga xizmat qiladi.⁹


Statistik ma'lumotlarga ko'ra, korxonalarning 90 foizi raqamli transformatsiyaning keng tarqalgan ustuvorligini namoyish qiluvchi raqamli tashabbuslar bilan shug'ullanadi. Tashkilotlarning 40 foizi texnologiya, byudjet va boshqalardan foydalanishni ko'paytirish orqali o'zlarining raqamli transformatsiya loyihalarini kengaytiradilar. Korxona tashkilotlarining 66 foizi (1000 dan ortiq xodimga ega) va kichik biznesning 49 foizi (1000 nafardan kam xodim) raqamli transformatsiya strategiyasini qabul qilgan.

O'zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarda rivojlanish strategiyasi tadbirkorlik faoliyati va innovatsion rivojlanish asoslarini kichik va o'rta biznes sohasida rivojlantirishni nazarda tutadi. Kichik va o'rta biznes sohasida 1 yanvar 2024 yil natijasiga ko'ra 417,1 mingga teng korxonalar mavjud. Bu O'zbekiston Respublikasining strategik rivojlanish soxalariga kirgani bilan, ushbu soxada raqamli transformatsiya yetarli darajada rivojlangan emas. Bunga sabab kichik korxonalarda innovatsion rivojlanishga O'zbekiston Respublika Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra korxonalar yondashuvi aktiv emas.

2022-yilda raqamli transformatsiyaga sarflangan global xarajatlar 1,6 trillion dollarga yetdi. 70 foizdan 95 foizgacha raqamli transformatsiya maqsadlari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Ishchilarning 74 foizi o'z biznesida to'liq amalga oshirilgan Digital Employee Experience (DEX) strategiyasiga ega ekanligini ta'kidlaydi. AQShda xodimlarning 55 foizi haftasiga kamida uch kun masofadan ishlashni afzal ko'radi.

1-rasm

Innovatsion maqsadlar uchun eng yaxshi raqamli transformatsiyalar¹⁰




⁹ Mirsoatov A.Q. PhD, mustaqil izlanuvchi. Raqamli transformatsiya: mazmuni, mohiyati, shart-sharoitlari va istiqbolli yo'nalishlari. Toshkent, «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» jurnali 3/2022

¹⁰ Raqamli transformatsiya statistikasi. 23.11.2023. <https://infocom.uz/news/raqamli-transformatsiya-statistikasi> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2023-yilda asosiy biznesning o'sishi (46 %) kompaniyalar uchun raqamli transformatsiya maqsadlaridan ustundir. Innovatsiyalar (45 %) va samaradorlik (42%) yaqindan kuzatib borilmoqda. 2023-yilda operatsion samaradorlik va texnologiya innovatsiyasi global raqamli transformatsiyadan foydalanishning eng mashhur holatlaridir. Birgalikda ular barcha RT xarajatlarining 35% ni tashkil qiladi.

Texnologiyani yangilash (50 %), operatsion samaradorlikka erishish (34 %) va ma'lumotlardan ko'proq qiymatga ega bo'lish (32 %) transformatsiyaning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Raqamli transformatsiya bo'yicha yuqori natijalarga erishgan kompaniyalar muvaffaqiyatini innovatsiyalar orqali o'lchaydilar (36 %), masalan, yaratilgan yangi mahsulotlar, yaratilgan g'oyalar va boshqalar. Ikkinchi o'rinda raqamli savodxonlik (32 %), masalan, ma'lumotli ishchi kuchi, qobiliyatlarni baholash va boshqalar. Samaradorlik (40 %), masalan, unumdorlik, yalpi marja va boshqalar qat'iy amal qiladi.¹¹



2-rasm. Transformatsiyaning ustuvor yo'nalishlari.

¹¹ Raqamli transformatsiya statistikasi 23.11.2023. <https://infocom.uz/news/raqamli-transformatsiya-statistikasi>

Raqamli transformatsiya katta sur'atlarda amalga oshirilmoqda. O'n yillar oldin biznesni faqat mahalliy darajada targ'ib qilish mumkin edi. Gazetalardagi mahalliy e'lonlar, ustunlardagi e'lonlar va tashrif qog'ozlarini tarqatish kabi. Keyin veb-saytlar paydo bo'ldi va kompaniyalar asta-sekin, bir vaqtning o'zida televideniya reklama berish bilan birga raqamli makonga kira boshladilar. Bugungi kunda raqamli transformatsiya yangi to'lqinni boshdan kechirmoqda. Sun'iy intellekt faol rivojlanmoqda, mashinani o'rganish amalga oshirilmoqda.¹²

Xulosa va takliflar.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, tadbirkor rahbarlar, o'zgarishlar va innovatsiyalarni qabul qiladigan madaniyatni shakllantirishi, raqamli imkoniyatlarni biznes maqsadlari bilan muvofiqlashtirishi zarur.

Bu muvofiqlashtirish jarayoni nafaqat operatsion samaradorlikni oshiradi, balki bozor talablariga tezroq javob bera oladigan yangi biznes modellarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya jarayoni bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bular: raqamli texnologiyalarni joriy etish, biznes jarayonlarini moslashtirish va malaka yetishmovchiligini boshqarish. Xodimlarning raqamli savodxonligini oshirish va o'qitishga firmalar tomonidan sarmoya kiritish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday sarmoya nafaqat xodimlar salohiyatini, balki umumiy biznes ko'rsatkichlari va innovatsion faoliyatni ham oshiradi. Shuningdek, kichik biznesni rivojlanishi uchun raqamli transformatsiya tashqi hamkorlik va tarmoqlarning ahamiyatiga xam katta ta'sir qiladi.

Raqamli tarmoqlarga qo'shilish orqali kichik biznes mahsulotlarini yetkazib beruvchilar va mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirib, innovatsiyalarni rag'batlantirishi va operatsion samaradorlikni oshirishi mumkin. Bu esa o'z navbatida mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatini takomillashtirishga, biznesning o'sishiga olib keladi.¹³

Muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya nafaqat texnologik modernizatsiyani, balki korxonaning biznes modelini qayta ko'rib chiqish uchun strategik qarashni, uni operatsion jarayonlarga tatbiq etish bo'yicha boshqaruv malakasini va tegishli raqamli ko'nikmalar va ularni amalga oshirish uchun nostandart fikrlash bilan qurollangan xodimlarni talab qiladi. Raqamli texnologiyalar mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, innovatsiyalar kiritish, korxonalar, xodimlar, iste'molchilar va hukumat bilan o'zaro munosabatlarni o'zgartirishi mumkin. Ular korxona faoliyatiga keng

¹² Raqamli transformatsiya biznesning rivojlanishiga qanday yordam bermoqda? 22.08.2022 <https://ict.xabar.uz/uz/startup/raqamli-transformatsiya-biznesning-rivojlanishiga-qanday-yordam>

¹³ Xudoynazarov F.X. Kichik biznes sub'ektlari faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich magistranti. International scientific journal of biruni ISSN (E) 2181-2993 Volume 4, Issue 1. (2025)

ko'lamli foyda keltiradi va korxonada mehnat unumdorligini oshirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli vositalar va usullar korxonalarga mahsulot dizaynini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtirish, yangi mijozlarni jalb qilish va qiymat zanjiri bo'ylab yetkazib beruvchi munosabatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, asosiy vositalarni arzonlashtirish orqali yanada moslashuvchan biznes modellarini yaratishga yordam beradi masalan, bulutli texnologiyalar hisob –kitob qilish kerak bo'lganda ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash imkoniyatini, sun'iy intellekt esa korxonalarga murakkab vazifalarni avtomatlashtirish imkoniyatini taklif qiladi. Bugungi kunda Google, Amazon yoki Kickstarter kabi onlayn platformalarda raqamli texnologiyalar korxonalarga marketing, sotish, moliyalashtirish kabi muhim biznes funksiyalarini bajarishga va shu bilan birga global bozorlarga kirishga katta imkon beradi.¹⁴

Bizning fikrimizcha, quyidagi takliflar maqsadga muvofiq deb bilamiz, ular ichida:

- O'zbekistonda kichik va o'rta biznes soxalarida raqamlashtirish modelini va institutsional asoslarni tizimli o'rganib taxlil qilish;
- Kichik va o'rta biznes soxalarida raqamli transformatsiyaga baxo berishni konseptual-mantiqiy modelini ishlab chiqish;
- Raqamli transformatsiyani o'rganib, uning O'zbekistonda eksport faoliyati bilan bog'lab qo'llab-quvvatlash xususiyatlarini nazorat qilish, mahsulotning eksport imkoniyatlarini kengaytirishni tashkiliy-iqtisodiy asoslarini taxlil qilish;
- Raqamli transformatsiya kichik va o'rta biznes sub'ektlarini axborot tizimini qamrab oluvchi institutsional modelini ishlab chiqish;
- Raqamli transformatsiya innovatsion tadbirkorlikning asosi va innovatsion faoliyatini imkoniyatlaridan foydalanib, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish;
- Raqamli transformatsiya tizimini, firmalar emas davlat darajasiga olib chiqish va qonuniy baza asosida rivojlantirish lozimdir. Davlat yordamida yuqorida aytilgan raqamli transformatsiyani kichik va o'rta biznes korxonalarida takomillashtirish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmoni. 28.01.2022. <https://lex.uz/docs/-5841063>

¹⁴ Kamalov Sh.K. Toshkent moliya instituti dotsent v.b. PhD Raqamli transformatsiyani tashkil etish va xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasida raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari ilmiy elektron jurnal, 2023 y. №1, 74 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079 sonli farmoni <https://raqamlitarix.uz/wp-content/uploads/2022/12/PF-6079-05.10.2020.pdf>
3. Suvanova D.D. – BTOM, doktorant. Aksiyadorlik jamiyatlarida biznesni boshqarish samaradorligini raqamlashtirish asosida oshirish yo'llari. Biznes va iqtisodiyotda raqamli transformasiya mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Toshkent 2023. 210 b.
4. Muzrabov A.A. Kichik va o'rta biznesda raqamli transformatsiyani jadallashtirish masalalari. O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. Ilm-fan xabarnomasi <https://inlibrary.uz/index.php/ix/article/view/69501>
5. Николаев Ю.Н., к.э.н., доцент, ВГТУ, г. Волгоград, Россия. Механизм цифровой трансформации субъектов малого и среднего предпринимательства. Прогрессивная экономика. 2023. № 1. С. 41–54. <https://progressive-economy.ru/wp-content/uploads/2023/08/elibrary.pdf>
6. Рустамова А.И. к.т.н., доц., Цифровая трансформация малого и среднего бизнеса: стратегии и инструменты для устойчивого роста. Economics: Yesterday, Today and Tomorrow. 2024, Vol. 14, <http://www.publishing-vak.ru/file/archive-economy-2024-5/b18-rustamova-osmanova.pdf>
7. Мызрова К.А., Панько Ю.В. Цифровая трансформация малого бизнеса: возможности, перспективы и препятствия <https://1economic.ru/lib/122173>
8. Mirsoatov A.Q. PhD, mustaqil izlanuvchi. Raqamli transformatsiya: mazmuni, mohiyati, shart-sharoitlari va istiqbolli yo'nalishlari. Toshkent, «Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar» jurnali 3/2022
9. Raqamli transformatsiya statistikasi 23.11.2023. <https://infocom.uz/news/raqamli-transformatsiya-statistikasi>
10. Raqamli transformatsiya biznesning rivojlanishiga qanday yordam bermoqda? 22.08.2022 <https://ict.xabar.uz/uz/startap/raqamli-transformatsiya-biznesning-rivojlanishiga-qanday-yordam>
11. Xudoynazarov F.X. Kichik biznes sub'ektlari faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich magistranti. International scientific journal of biruni ISSN (E) 2181-2993 Volume 4, Issue 1. (2025)
12. Kamalov Sh.K. Toshkent moliya instituti dotsent v.b. PhD Raqamli transformatsiyani tashkil etish va xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasida raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari ilmiy elektron jurnal, 2023 y. №1, 74 b.
12. Gulyamov S.S., Ergashev R.X., Xamrayeva S.X. Raqamli iqtisodiyot - (o'quv qo'llanma),- T.: 2020. -377 b.